

BUXORO VILOYATIDA UZUMNI ZAMONAVIY USULLARDA SAQLASH TEXNOLOGIYALARINI SAMARADORLIGI

Hakimova Nodira Xayrilloyevna

Buxoro davlat universiteti

Agronomiya va biotexnologiya fakulteti

b.f.f.d., dotsenti

Farmonova Muxlisa Komilovna

Buxoro davlat universiteti

Agronomiya va biotexnologiya fakulteti

Qishloq hojaligi maxsulotlarini saqlash va q

ayta ishlash texnologiyasi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Maskur maqolada O‘zbekistondagi uzumni saqlash va qurutish texnologiyasini samaradorligi, uzumni saqlash va qurutishda qo‘llaniladigon zamonaviy reserstejamkor texnologik omillar ahamiyati va qo‘llash texnologiyasini toliq aks ettirilgan. Respublikamizda uzum yetishtirish texnologiyasi muttasil mo‘l va sifatliy hosil beradigon uzum navlarni qo‘llash, uzum yetishtirish miqdorini ko‘paytirish, hozirgi sanoatlashtirilgan itiqbolli yekspertbop yuqori bo‘lgan uzum navlarini yetishtirish muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Intensiv uzumchilik, uzumni saqlash va quritish, yetishtirish texnologiyasi, zamonaviy saqlash va quritish texnologiyasi saqlash, va mayiz tayyorlash samaradorligi

Аннотация: В данной статье в условиях Узбекистана разработана современные республиканские технологии по сушке и хранению винограда кишмишного направления обоснованно указано. В нашей стране разработано научно-обосновано разработана современные способы сушки и хранения высокоурожайность сорта винограда способствует высокому проценту хранения и экспорт сушеный винограда кишмишного направление считается актуальным и современным вопросом.

Ключевые слова; интенсивное виноградарство хранение и сушка винограда производство винограда современная способ хранения и сушки эффективность и подготовка приготовлена сушеной продукции.

Abstrakt In this article, under the conditions of Uzbekistan, the development of modern republican technology and the storage of raisin grapes is justified. In our country, a scientifically based, modern method has been developed for the highest yield of grape varieties, a method for the storage and export of raisin grapes, the direction is considered an urgent and modern issue.

Key words intensive viticulture storage and 24-hour wine production grape production modern storage methods and 24-hour efficiency and preparation of prepared dried products

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 03.08.2023 yildagi PQ-260-sonli qaroriga binoan Mamlakatimizda uzumchilik va vinochilik sohasini kelgusida yanada barqaror rivojlantirish, yangi istiqbolli sanoatbop uzum navlarini ko'paytirish va yetishtirishni yo'lga qo'yish, qayta ishlash korxonalarini xomashyo bazasi bilan ta'minlashni mustahkamlash va moliyaviy qo'llab-quvvatlash, malakali mutaxassislarni tayyorlash, shuningdek, uzum va vinochilik mahsulotlari eksporti hajmlarini oshirish maqsadida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda, shuningdek, Buxoro viloyatida 2023-2026 yillarda 20 000 gektar uzumzor barpo etiladi.

Hozirgi sanoatlashtirilgan uzumchilikda intensiv tipdagi tokzorlarda istiqbolli, eksportbop yuqori va muttasil sifatli hosil beradigan hamda bu bilan birgalikda mayiz chiqish foizi yuqori bo'lgan uzum navlarini etishtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Buxoro viloyati tuproq-iqlim sharoitida ham oxirgi yillarda sanoatbop uzum navlaridan bog' barpo qilishda katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekistonda uzumni saqlashning bir qator oddiy va xalq usullari qo'llaniladi. Masalan, uzumning bandidan osib saqlash, pishgan, sog'lom uzum boshlari uzilib, bir-ikki kun bandlari va po'stlarini so'litish uchun soya joylarda saqlanadi. So'ngra ularni ikkitadan kanop ipga bog'lab maxsus bino ship ostiga o'rnatilgan so'kchaklarda osiladi. Bino ichidagi havo harorati 0⁰S yoki 0.5⁰C, nisbiy namligi esa 80-90% atrofida bo'lishi lozim. Bu usulda uzumni yanvar-fevral oylarigacha yaxshi saqlash mumkin. Gujumlari biroz burishib tashqi ko'rinishi o'zgartirsada, ammo uning xushta'mligini saqlab qoladi.

Uzumni doimiy omborlarda saqlash. Uzumning Nimrang, Toyifi, Oktyabr, Qora kishmish, Muskat O'zbekiston, Xusayni kabi xo'raki navlarini maxsus sharoitda 4-6 oygacha saqlash imkoni ham bor. Shuningdek, uzumni uzoq saqlanishiga yordam beradigan quyidagi shartlariga ham amal qilish lozimligi qayd etilgan. Uzumni uzishdan 15-20 kun oldin sug'ormaslik, gujumlari bir tekis, pishgan, zararlanmagan, kasallanmagan, o'rtacha zich boshlarini faqat havo ochiq va quruqligida uzish, yomg'irdan keyin uzmaslik zarurligi ko'rsatilgan. Uzum boshlarini uzumidagi gujumlar ustidagi mumg'ubor qatlamini saqlagan holda pishmagan, xom, mayda, kasallanganlari olib tashlash foydadan xoli emas. Gujumlari o'ta zich, notekis, to'liq pishmagan uzum boshlari saqlashga yaroqsiz hisoblanadi. Uzum uzilgach uni 10-12 soat davomida salqin joyga yozib qo'yiladi. So'ng hajmi 7-8kg qilib qutilarga joylashtiriladi. Uzumning yaxshi saqlanishi uchun har bir quttiga kaliy metabisulfatning 40-45kg li tabletkasi tegishli qog'ozlarga o'rab solinadi. Bunda uzumning saqlanish muddati 3-4oyga uzayib, chiqindi kam bo'ladi. Uzum

saqlanadigan bino yaxshi tozalangan va dezinfeksiya qilingan bo'lishi talab etiladi va bu tadbirni o'tkazilishi yaxshi natija beradi.

Terilgan hosil xo'jalikning o'zida avtomobil rezina g'ildirakli traktor hamda ot aravada tashiladi. Uzoq joylarga oborishda esa avtomobil va temiryo'l transporti, ba'zan uzoq masofalarga samolyotlardan foydalaniladi. Ayniqsa, avtoreferatorlar, refrijeratorli vagonlarda tashish juda qulay. Buning uchun oldindan maxsus sovutgichlarda uzumni 12-20⁰S haroratda ushlab turilishi lozimligi tavsiya etilgan. Temir yo'l transporti orqali jo'natilgan uzumning yaxshi saqlanib borishi uchun uzum solingan har bir quttiga 10 ga hisobidan kaliy metabisulfatning tabletkalari joylashtirilishi lozim. Ulardan ajralib chiqadigan angidrid gazi gujumlarni mog'orlashdan saqlaydi va yaxshi natija beradi.

Qishda saqlashga mo'ljallangan uzumlar tegishli qutilarga bandini yuqoriga qaratib joylanadi. Maxsus sovutgichlarga joylashdan oldin xona oltingugurt gazi bilan dudlanadi va germitizatsiya o'tkaziladi, ya'ni xonani ichki muhiti yaxshilanadi.

Uzumning yaxshi va uzoq saqlanishida havo harorati hamda namligini kerakli darajada ushlab turishdan tashqari bino havosini almashtirib turilishi ham muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari asosiy maqsad gujumlarning nafas olishi natijasida hosil bo'ladigan ortiqcha karbonat angidrid gazi va boshqa gazsimon mahsulotlar, havodagi zararli mikroorganizmlar mog'or hidlarini chiqarib, binoga yangi havo kirishi kabi tadbirlar o'tkazish yaxshi natija beradi. Uzumning saqlanuvchanligi birinchi navbatda nav xususiyatlariga bog'liq. Oktyabr, Pushti toyifi navlarini 6-7oy davomida saqlash mumkin. Bu holda aholini butun qish davomida uzum bilan ta'minlanish imkonini beradi. Saqlanadigan navlar ancha transportbop bo'lishi talab etiladi. Etilmagan uzum boshlari mog'orda chidamsiz va saqlashga yaroqsiz hisoblanadi. Uzumni sovutish omborlarida 0-1⁰S gacha saqlanadi. U 2⁰S gacha haroratda chidaydi. Ammo bu xavfli hisoblanib, ba'zi navlarda fiziologik buzilish kuzatiladi. Unda mevalarning eti, rangi o'zgaradi. Havoning nisbiy namligi 90-95% bo'lishi agrotexnologik maqsadlarga muvofiq hisoblanadi.

Mahsulot qadoqlash korxonalariga navlardan yig'ilgandan so'ng ikki haftadan oldin yoki bir oydan kechiktirib topshirilmasligi lozim. Ammo quritilgan uzumning saqlanish davomiyligiga bog'liq bo'lmagan holda mahsulot saqlanadigan joy quruq, yaxshi yoritilgan va shamollatiladigan bo'lishi lozim. Quritilgan uzumga kemiruvchilar, qushlar va boshqa jonivorlarning kelishini bartaraf etishga qaratilgan barcha choralarni qo'llash zarur. Ayniqsa tayyor mahsulotni uzumzorning o'zida ham qadoqlash korxonasida ham buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan hasharotlar bilan zararlanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Quritilgan uzumni saqlashga mo'ljallangan ombor puxta yuvilishi va imkon bo'lsa bug' bilan ishlov berilishi yoki fumigatsiyalanishi maqsadga muvofiqdir. Fumigatsiya qilishda inson va foydali hayvonlarning sog'ligini asrash choralari

qat'iy amal qilinadi. Fumigatsiyaning muvaffaqiyatli chiqishi uchun bino germetik yopiladi, ya'ni barcha eshik va romlar yopilib, tirqishlar suvaladi.

Bugungi kunda quritilgan uzumlarni kichik sig'imli polietilen xaltachalarga qadoqlash juda keng urf bo'lmoqda. Bunday o'ramlar o'zining xaridorligi, savdo shaxobchalarida tashish, joylash va xaridorlarga etkazishda qulayligi va boshqa sifatlari bilan ajralib turadi. Ammo bu usul bevosita savdo shaxobchalariga realizatsiyaga chiqarish oldidan qo'llaniladi. Katta partiyadagi mahsulotlarni esa yuqoridagi tartibda saqlab boriladi.

Shtabellarga taxlangan uzumli quttilarni uzumzorni o'zida ham muvaffaqiyat bilan dudlash mumkin. Buning uchun shtabel ustiga silliq yog'och rekadan karkas yasaladi va gaz o'tkazmaydigan qog'oz yoki qora polietilen plyonka qoplanadi. Bunday gaz o'tkazmaydigan kameralardan noqulay ob-havo sharoitlarida mahsulotni himoyalash uchun ham foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бўриев Х.Ч., Жўраев Р.Ж., Алимов О.А. “Мева-сабзавотларни сақлаш ва уларга дастлабки ишлов бериш”. Тошкент: “Меҳнат”, 2002, 186б.
2. Орипов Р., Сулаймонов И., Умурзоқов Э., “Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини сақлаш ва қайта ишлаш технологияси”. Тошкент, “Меҳнат”, 1991, 159б.
3. Шоумаров Х.В., Мирзаев М.М., Жўраев Р.Ж., Файзиев Ж.Н. “Фермерлар учун мева, узум ва сабзавотларни сақлаш ва дастлабки қайта ишлаш бўйича тавсиянома”. Тошкент, 2007, 188б.
4. Ўзбекистон Республикаси ҳудудида етиштириш учун тавсия этилган қишлоқ хўжалиги экинлари давлат реестрига киритилган навлар тавсифи. Тошкент, 2013, 21б.
5. Ходжимуродова Н.Р., Хакимова Н.Х., Тураева Н.Н. Микроорганизмы орошаемых почв Бухарского Оазиса. / QarMII Innovatsion texnologiyalar. Innovative technologies. Ilmiy-texnik jurnal - Qarshi. 2021/1(41)-son .B.72-76 .
6. Nakimova N.X., Tokhirov B., O'ktamova M., Akramova M. Mobile phosphorus and potassium in the soil determination / International Journal for Innovative Engineering and Management Research. www.ijiemr.org doi:10.48047/ijiemr/v10/104/111 .vol10 issue04, april2021. impact factor 7.819.
7. Курвантаев Р., Мазиров М.А., Хакимова Н.Х., Солиева Н.А. Эволюция и прогноз развития орошаемых типичных и светлых серёзюмов на третьей террасе реки Зарафшан. / Владимирский земледелец. Научно-практический журнал. №4(98) 2021 DOI:10.24412/2225-2584-2021-4-14-20.
8. Nakimova N.X., Isroilova N.X., To'ymurodov Sh.T., Boboyev A.H. The importance of microorganisms in the saline soils of the Bukhara oasis. / Laboratorium WIEDZY Artur Borcuch Gospodarka I Innowacje Volume: 21/2022. Impact Factor: 8.01.